

Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Isoning tug'ilishi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan: M. Maillot

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: E. Frischbutter; Sarah S.

60 ta hikoyadan 36-si

www.M1914.org


Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha


Uzbek

Qadim zamonlarda Hudo
Farishta Jabroilni bir
yahudiylilik bokira qizga
yuborib shunday dedi:



1

"Sen o'qil tug'asan va Uning
ismini Iso qo'yasan. U Oliy
Hudovandning O'g'li bo'ladi
va abadiy hukmronlik
qiladi" - dedi.



2

"Bu qanday bo'ladi ahir, men er ko'rmagan bo'lsam" deb so'radi Maryam. Farishta: "bu chaqaloq Hudodan keladi" deb aytdi. Va uning otasi hech qaysi erkak bo'lmasligini ham takidlagi.



3

Farishta Maryamga uning qarindoshi Elizabet ham homilador ekanini aytdi. Bu mo'jiza edi. Tez orada Maryam Elizabetni ko'rishga bordi.



4

Maryam Yusufga unashtirgan edi. Lekin Yusuf Maryamning homiladorligini bilib juda hafa bo'ldi.



5

Lekin farishta Yusufning tushida ko'rinib unga bu bola Hudodan ekanligini aytdi. Shundan keyin Yusuf Maryamga Isoga g'amho'rlik qilishga yordam berdi.



6

Yusuf Hudoga ishonib itoat qildi. U shuningdek davlatga soliq berar edi.



7

Maryam o'zining bolasini tug'ishga tayyor edi lekin Yusuf hech qayerda joy topolmadi. Hamma joy band edi.



8

U nihoyat bir othonani topdi va Iso othonada tug'ildi. Uning onasi Isoni yo'rgaklab ohurga qo'ydi. Hayvonlar bu ohurdan oziqlanishardi.



9

O'sha yaqin joyda cho'ponlar qo'ylarini boqib yurishardi. Hudoning farishtasi ularga paydo bo'lib buyuk



hushabarni elon qildi.

10

"Bugun Dovudlar shahrida sizlar uchun Haloskor tug'ildi. U Rabbimiz Masihdir. Sizlar Uni ohurda



yo'rgaklangan topasizlar."

11

To'satda yana bir talay farishtalar paydo bo'lib Hudoni olqishladilar.



12

Ular: "Samodagi Hudoga Hurmatu Izzat, yerdagi bandalarga tinchligu marhamat" deb sano aytishar edi.




13

Cho'ponlar yugurib othonaga borishar edilar. Bolani ko'rishgandan keyin ular farishtaning Iso haqidagi aytganlarini hammaga elon qilishdi.



14



Oradan 40 kun o'tgandan keyin Yusuf bilan Maryam Isoni Quddusdagi ma'badga keltirdilar.



U yerda Shimo'n nomli bir odam va keksa bir ayol Anna bola uchun Hudoga sano aytishardi.



Ularning ikkovi ham Iso Hudoning O'g'li ekanligini bilishardi. Yusuf ikkita parrandani olib Hudoga qurbonlik keltirdi bu Hudovand Qonuniga ko'ra qurbonlik edi.



Bir necha vaqt o'tgandan keyin Sharqda ko'rgan yulduz munajimlarga yo'l

ko'rsatib bordi va ular kelib "Yahudiylarning Podshohi bo'lib tug'ilgan bola qayerda? Biz Unga ta'zim qilgani keldik" dedilar.



Podshoh Hironi buni eshitgach u bilan butun Quddus bezovtalanib ketdi.




Shunda podshoh ulardan Masihning qayerda tug'ilishi kerakligini so'radi "Boring chaqaloqni toping men ham Unga ta'zim qilmoqchiman" dedi. Lekin u o'z ko'nglida chaqaloqni o'ldirishni niyat qildi.

Yulduz munajimlarni chaqaloq yotgan joyga keltirdi, ular chaqaloqni topganlaridan so'ng unga ta'zim qilib so'ng hazinalarini ochib Unga hushbo'y tutatqilar va mo'miyo tortiq qildilar.



21

Hirodga qaytmaslik haqida tushlarida ogohlantirilgandan so'ng boshqa yo'l bilan o'z yurtlariga qaytib keldilar.




22

Shunda Hirod Hudoning O'g'li Isoga zarar yetkaza olmadi. Farishta Yusufni tushida ogohlantirgandan keyin, Yusuf Maryamni va chaqaloqni olib Misrga qarab qochibketdi.



23

Hirodning o'limidan keyin Yusuf Maryam bilan



chaqaloq Isoni olib Isroilga qarab yo'l oldi. U yurtning Nosira degan shahrida joylasdi.

24

Isoning tug'ilishi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 1-2, Luke 1-2

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!